

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 116 (905), 2023-yil 14-iyun, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



BUGUNNING GAPI

MARKAZIY OSIYODA BIRINCHI, DUNYODA ESA YETTINCHI

O‘zbekiston suv tejavchi texnologiyalarni qay darajada qo‘llamoqda?

Yaqinda Turkiy davlatlar tashkilotining Vengriyadagi vakolatxonasi saytida O‘zbekistonda suv tejavchi texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarga bag‘ishlangan maqola e‘lon qilindi. Unda keltirilishicha, Markaziy Osiyoda suvning 80 foizdan ortig‘i qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun ishlatiladi.

Davomi 4-betda



2023 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVI

Gazetamizning bugungi sonida Tadbirkorlar va ishbilarmol harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyevning saylovoldi tashviqoti bo‘yicha maqola chop etilmoqda.

Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e‘lon qilinmoqda.

3-betga qarang.

BIZ VA DUNYO

O‘ZBEKISTONDAGI O‘ZGARISHLAR

Markaziy Osiyo taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi

Xitoy Davlat kengashi huzuridagi Yevropa va Osiyo ijtimoiy tadqiqotlar institutida (ISREA) O‘zbekistonda 9-iyul kuni bo‘lib o‘tadigan muddatidan ilgari Prezident sayloviga bag‘ishlangan davra suhbat tashkil etildi.

Davomi 2-betda

HAJ-2023

O‘ZBEKISTONLIK ZIYORATCHILAR UCHUN BARCHA SHAROIT MUHAYYO ETILGAN



Allohga shukrki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda diniy-ma‘rifiy sohada ulkan islohotlar kechmoqda. Xususan, davlatimizning bevosita ko‘magi bilan yurtidoshlarimizning haj ibodatlarini har qachongidan ham yuksak saviyada tashkil etish, ular uchun munosib qulayliklarni yaratib berish borasida tizimli ishlar qilinmoqda.

Bundan atigi olti-yetti yil avval haj kvotasi 5200 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilda bu raqam 7200 ta, 2022-yilda esa 12 000 taga yetdi. Joriy yilda mamlakatimiz fuqarolari uchun umumiy haj kvotasi 15 000 etib belgilandi. Albatta, haj kvotasining yildan-yilga oshib borishi ham yurtimizda diniy-ma‘rifiy yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar ko‘lami naqadar kengligidan darak beradi. Eng muhimi, xalqimiz bu kabi o‘zgarishlarni katta xursandlik va quvonch bilan qabul qilmoqda.

Har bir mo‘min-musulmon borki, Allohning baytini umrida bir bor bo‘lsa-da, tavof qilishni, Hazrati Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi

vasallamning muborak Ravzai shariflarini ziyorat etishni orzu qiladi. Chunki bu muqaddas zaminlarda Qur‘oni karim oyatlari nozil bo‘lgan, islom tarixiga oid ko‘plab voqea-hodisalar yuz bergan va savobli amallarning ajr-u mukofoti bir necha baravar ko‘paytirib beriladi.

Shu bilan birga, Ka‘batullohda ibodat qilishning, Nabiy alayhissalomning masjidlarida namoz o‘qishning savobi juda ulug‘. Masjidul Haramda bir rakat namozga yuz ming rakat, Masjid Nabaviyda esa ming rakat namozning savobi beriladi. Bunday ulkan imkoniyatga erishishga barchaning talpinishi tabiiy hol.

Davomi 5-betda

EHTIROM

Qarisi bor uy

ko‘ngil tortar shodlik maskani, tarbiya o‘chog‘i

Poytaxtimiz markazida so‘lim, bahavo, fayzli bir maskan bor. Hovliga kirishingiz bilan tabiatning ne-ne sinovlaridan omon o‘tgan qadim chinorlar, ko‘hna tutlarga ko‘zingiz tushadi. Yam-yashil maysazor bo‘ylab betakror o‘ymakorlik san‘atini namoyish etib turgan milliy shiypon-so‘rilar, gullar, mevali va manzarali daraxtlar salobatli sokinlik ramziday ko‘nglingizga ajib xotirjamlik baxsh etadi.

Davomi 5-betda

KUN MAVZUSI

ZAMONAVIY SAYLOV QONUNCHILIGI

XALQIMIZNING YUKSALIB BORAYOTGAN SIYOSIY TAFAKKURI, IJTIMOY FAOLLIGI VA ELEKTORAL MADANIYATINI NAMOYON QILADI

Saylov demokratik davlatning asosiy belgilaridan biri bo‘lib, u orqali mamlakatning taraqqiyoti va istiqboli namoyon bo‘ladi. Saylov xalqning o‘z xohish-irodasini bildirishi, davlat ishlarini boshqarishda bevosita ishtirok etishining asosiy shakli hamdir. O‘z navbatida, saylovda qatnashish asnosida fuqarolik pozitsiyasini ilgari surish xalqimizning yuksalib borayotgan siyosiy tafakkurini, ijtimoiy faolligi va elektoral madaniyatini ko‘rsatib beradi.

Davomi 2-betda

MAVSUM

XIRMON TO‘LIB TO‘KILAR DON

O‘rtacho‘lda g‘alla hosili mo‘l

Ayni vaqtda yurtimizda rizq-ro‘zimiz bo‘lgan g‘alla hosilini yig‘ib-terib olish mavsumi boshlandi. Albatta, yaxshi hosil olish uchun katta mehnat, dalada ishni oqilona tashkil etish kabi ko‘plab omillar talab etiladi. Jumladan, Navoiy viloyatining cho‘l hududlarida g‘alla yetishtirishning o‘ziga yarasha qiyinchiligi va mashaqqati bor.

Davomi 2-betda



